

Muallif haqida:

XUSANOVA Laylo Jumaboy qizi — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-bosqich magistranti

IMPORTANT ASPECTS OF A BLOGPOST IN CYBERSPACE

Abstract: The article discusses in detail the characteristics and types of blogposts and their importance today. The aim of the thesis is to reveal the role of bloggers in shaping new social and economic trends, their role in the media, their influence on social, political and economic realities, their freedom of choice in the use of digital platforms, and the importance of blogposts.

Keywords: Media literacy, blogpost, blogosphere, content, professional information, blog types, social media

About the author:

KHUSANOVA Laylo Jumaboy qizi — first-year master’s student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan.

O‘ZBEKISTONDA DESTRUKTIV KONTENTGA QARSHI
KURASH: MEDIA STRATEGIYALAR TAHLILI

Shohista Yunusaliyeva,
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston internet makonida destruktiv kontentlarga qarshi kurashishda axborot platformalarining, xususan, Kun.uz va Yuz.uz saytlarining o‘rni tahlil qilinadi. Destruktiv kontent turlari, ularning ommaviy axborot vositalari orqali tarqalish uslublari, shuningdek kontr-narrativlar, media savodxonlik va faktchekingning ahamiyati asosida tahlil qilinadi. Yuz.uz va Kun.uz saytlarining konkret faoliyatiga asoslangan tahliliy misollar orqali bu kontentlarga qarshi strategiyalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: destruktiv, content, axborot platformalari, sayt, kontr-narrativ, media savodxonlik, faktcheking

Axborot makonida global raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, O‘zbekistonda ham jamiyatni axboriy tahdidlardan himoya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. E.Toﬄerning urushlar tipologiyasiga ko‘ra, agrar jamiyat urushlari hududlar uchun, industrial davr urushlari ishlab chiqarish vositalari uchun olib borilgan bo‘lsa, zamonaviy axborot davri kurashlari axborot oqimi va bilim resurslari ustidan yuritiladi (Toﬄer, 1980).

Destruktiv kontent turlari

Destruktiv kontentlar orasida feyk xabarlar, manipulyativ yangiliklar, ekstremistik chaqiriqlar, nafrat so‘zlari, emotsional shov-shuvli sarlavhalar asosiy o‘rinda turadi. Philip N. Howardning “Lie Machines” (2020) asarida internetdagi manipulyatsiya va yolg‘on xabarlarining demokratik jamiyatlarga salbiy ta‘siri keng yoritilgan.

DOI:

[https://doi.org/10.62499/](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi9.200)

ijmcc.vi9.200

Iqtibos:

Yunusaliyeva, Shohista.
2025. O‘ZBEKISTONDA
DESTRUKTIV
KONTENTGA QARSHI
KURASH: MEDIA
STRATEGIYALAR TAHLILI
Markaziy Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro
ilmiy jurnali. 9: 90-92.

Kun.uz saytida destruktiv kontentga qarshi strategiyalar.

Kun.uz O'zbekistondagi eng yirik xabar portallaridan biri bo'lib, feyk xabarlarni fosh etish, firibgarlik sxemalarini aniqlash, emotsional sarlavhalar bilan birga faktlarga asoslangan tahliliy maqolalar e'lon qilishi bilan ajralib turadi. Sayt, misol uchun, "zombi virus" yoki "TeslaX investitsiyasi" singari feyk xabarlarga qarshi rasmiy manbalarga tayanib materiallar chiqargan.

Saytda clickbait, vahimaga solish, shubha uyg'otish, davlat organlariga ishonchsizlik singari manipulyatsiya usullariga misol bo'luvchi maqolalar ham kuzatilgan. Bu esa jurnalistik mas'uliyat va faktcheking muammolarini yuzaga chiqaradi.

Kun.uz kabi yirik sayt jamoasida, albatta, materiallar ichki tahririyat nazoratidan o'tadi. Shunday bo'lsa-da, xato yoki aniqlanmagan ma'lumot tarqalish xavfi saqlanib qoladi. Masalan, yirik falokatlar haqida ilk xabarlar odatda ijtimoiy tarmoq va messendjerlardagi xabarlarga asoslanadi – u yerda esa ma'lumot ko'pincha rasmiy tasdiqsiz bo'ladi. Qamchiq dovonidagi YTH misolida rasmiy axborot ikki kun kechikkan, natijada hodisa haqidagi dastlabki tasvirlar ijtimoiy tarmoq orqali tarqalgan va omma orasida taxminlar uyg'ongan edi.(kun.uz) Bu o'rinda sayt ijtimoiy tarmoqda chiqqan videolarga tayangan holda hodisani yoritishga majbur bo'ldi. To'g'ri, keyinchalik rasmiy tasdiq keldi, ammo dastlabki bosqichda xabar to'liq tasdiqlanmagan axborotga qurilgan edi.

Yuz.uz saytida kontr-narrativ strategiyalar.

Yuz.uz esa rasmiy axborot manbasi sifatida feyk xabarlarga qarshi tezkorrad etish, ijtimoiy ongda ishonchni tiklash, multimedia vositalari orqali konstruktiv kontent yetkazish vazifasini bajaradi. Masalan, "Muftiy Nuriddin Xoliqnazarov nomidan feyk video" haqidagi ogohlantiruv, Markaziy bank tangasi haqidagi yolg'on xabarlarni rad etish, "Jaholatga qarshi ma'rifat" kabi videoroliklar shular jumlasidandir. Yuz.uzning afzalliklaridan biri bu kontentning ko'p tildaligi va xalqaro auditoriyani ham qamrab olishidir. Sayt o'z materiallarini o'zbek, rus, ingliz, qozoq, tojik tillarida taqdim etadi.

Yuz.uz sayti davlat axborot siyosati doirasida ishlaganligi sababli, uning afzallik jihati – rasmiy manbalarga bevosita tayanishi va xabarlarining ishonchliligi yuqori ekanligidir. Sayt O'zbekistondagi aksar rasmiy idora va tashkilotlarning axborot xizmati bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Masalan, Yuz.uz milliy axborot agentligi UZA bilan hamkor tarzda ishlagani tufayli qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatidagi yangiliklarni birinchi manbada oladi. Bu esa tezkorlik va haqqoniylikni ta'minlaydi. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, Yuz.uz ogohlantiruvchi kontentni tezda e'lon qilish orqali feyk xabarlarining keng tarqalib ketishining oldini olishga intiladi. Misol uchun, O'zbekiston

Musulmonlar idorasi va Markaziy bank bilan bog'liq feyklar bo'yicha rasmiy izohlar operativ tarzda berilishi natijasida jamiyatda noto'g'ri tushunchalar chuqur ildiz otmadi.

Multimedia texnologiyalar va foydalanuvchi ishtiroki.

Yuz.uz video, infografika, podcastlar orqali ijtimoiy muammolarni yoritadi va ijobiy misollar asosida motivatsion kontent yaratadi. Shu bilan birga, foydalanuvchi ishtirokini rag'batlantirish – xalq vakillarining chiqishlarini e'lon qilish, fikr bildirish imkoniyatlari, ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya qilish – bu kontr-narrativlarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, destruktiv kontentga qarshi kurash doimiy e'tibor va yangilanishni talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Tahlillar ko'rsatganidek, yetakchi internet-nashrlar (Kun.uz, Yuz.uz kabi) feyklarni fosh etib, rasmiy bayonotlarni yetkazib, kontr-narrativlar yaratish orqali muhim ishlarni amalga oshirdi. Xorijiy tajribani o'rganish va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish bu kurashni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Axborot asrida axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylangan. Shu bois, davlat idoralari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati birgalikda yagona pozitsiyada jamiyatni yolg'on va buzuvchi xabarlardan himoya qilish uchun izchil chora-tadbirlar ko'rishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Arifxonova, S. (2023). Internet makonida axboriy xavfsizlik va tahlil yondashuvlari. O'zbekiston jurnalistikasi, 2(4).

Kun.uz. (2024–2025). Turli tahliliy va yangiliklar maqolalari. <https://kun.uz>

Yuz.uz. (2024–2025). Rasmiy rad etishlar va ogohlantiruvlar maqolalari. <https://yuz.uz>

Howard, P. N. (2020). Lie machines: How Facebook, Google, and Twitter made Trump. Yale University Press.

OSCE. (2023). Preventing violent extremism through media literacy. <https://www.osce.org>

Toffler, A. (1980). The third wave. William Morrow and Company.

UNESCO. (2024). Media literacy in Central Asia. <https://www.unesco.org/en>

Muallif haqida:

YUNUSALIYEVA Shohista Qodirovna — O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi.